

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABA (KURSANT)LARIDA JISMONIY-TAKTIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

МЕТОДИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКО-ТАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ (КУРСАНТОВ) ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL AND TACTICAL SKILLS AMONG STUDENTS (CADETS) OF PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING

Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich¹

¹Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich

– Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Аннотация

Mazkur maqolada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi kadrlarini tayyorlash, ularning bilim va malakalarini oshirishda va professional kasbiy faoliyatlarga tayyorlashda akmeologik yondashuvning samaradorligi va uning ahamiyatli jihatlari tadqiq qilinadi. Shu bilan birga akmeologik yondashuvning pedagogika fanlari doirasidagi vazifasi, kadrlarni tayyorlashdagi metodikasi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность и значимость акмеологического подхода в подготовке кадров допризывного военного обучения, повышении их знаний и квалификации, подготовке к профессиональной деятельности. При этом анализируется задача акмеологического подхода в рамках педагогической науки, его методика в подготовке кадров.

Abstract

This article examines the effectiveness and significance of the acmeological approach in the training of pre-conscription military training, improving their knowledge and qualifications, preparing for professional activity. At the same time, the task of the acmeological approach in the framework of pedagogical science, its methodology in personnel training is analyzed.

Kalit so'zlar: innovatsiya, talaba, kursant, metodika, mashg'ulot, harbiy ta'lim, konsepsiya, jangovarlik ruhiyati, ko'nikma, jismoniy-taktik tayyorgarlik.

Ключевые слова: инновация, студент, курсант, методология, обучение, военная подготовка, концепция, боевой дух, навыки, физическо-тактическая подготовка.

Key words: innovation, student, cadet, methodology, training, military education, concept, martial spirit, skills, physical and tactical training.

KIRISH

Jahonda harbiy ta'lim tizimini isloh qilish, unga innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga talaba-kursantlarni tayyorlashning modernizatsion metodikasini ishlab chiqish, ularning jangovarlik muhitini oshirish, jismoniy irodasini mustahkamlash va taktik tayyorgarligini rivojlantirishga doir harbiy-pedagogik mashg'ulotlarni isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. jumladan, rivojlangan mamlakatlarda talaba-kursantlarda jangovar ruhni oshirish, jismoniy tarbiyaga doir ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga doir konsepsiyalar qabul qilingan. Shu bilan birga, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimini isloh qilish orqali yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ulardagi Vatan oldidagi xizmatlariga doir mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoatchilik ishlari, ijtimoiy harakatlar va pedagogik ilmiy tadqiqotlar ham rag'batlantirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro institutlarida yoshlarda va kursant-talabalarda jangovarlik ruhiyati, jismoniy imkoniyatlari, taktik tayyorgarligi va harbiy bilimni rivojlantirish, shu bilan birga, fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirishga doir ko'plab loyihalar, dasturlar va fundamental ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu orqali harbiy xizmatchilarda jismoniy-taktik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari va ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishga keng yo'l ochmoqda. Shu bois, rivojlangan

mamlakatlarda harbiy ta'limni zamonaviylashtirish, kursant-talabalarda zamon ruhiyatiga xos ko'nikmalarni, harbiy-taktik tayyorgarligini oshirish, jismoniy tayyorgarligi va irodasini chiniqtirish, xalqaro harbiy munosabatlarga oid teran tafakkurini shakllantirish masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham harbiy soha va harbiy ta'lim tizimini isloh qilish, uni rivojlantirish, harbiy xizmatchilar va kursant-talabalarda jismoniy-taktik ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ko'plab tashkiliy, huquqiy va ilmiy-pedagogik islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, "mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari qatorida, harbiy sohaning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha tizimli va strategik chora-tadbirlarni" belgilanishi, tizimli ravishda harbiy sohani isloh qilish amalga oshirilayotgani, bu borada "Yangi Mudofaa doktrinası"[25;59]ning qabul qilinishini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, harbiy ta'lim tizimida o'qitishning yangicha standartlari, samarali mexanizmlari ishlab chiqilmoqda, harbiy-sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda va bu borada texnik hamda texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, harbiy soha xizmatchilari uchun "Mustaqillik", "Amir Temur", "Jaloliddin Manguberdi" ordenlari, "Jasorat", "Sodiq xizmatlari uchun", "Mardlik" medallari ta'sis etilganligi va taraqqiyot strategiyasida xavfsizlik masalalariga ustuvorlik berilayotgani ham harbiy xizmatchilarda jismoniy-taktik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida jismoniy-taktik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishdan iborat bo'lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipoteza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida jismoniy-taktik faoliyatga doir sifatlarining axloqiy, psixologik va pedagogik mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida jangovar-taktik ko'nikmalarni rivojlantiruvchi va aksincha, uni yemiruvchi omil va yondashuvlarni asoslash;

- akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi uchun "jismoniy-taktik faol talaba" fenomeni hamda axloqiy idealni shakllantirishning pedagogik, etnopedagogik va aksiologik xususiyatlarini tizimli-funksional tamoyil asosida ochib berish;

- akmeologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida jismoniy-taktik tayyorgarlik va jangovarlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimining integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanishi va novatorlik bosqichlari mazmuni, samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasini asoslash;

- chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida jismoniy-taktik ko'nikmalarni rivojlantirishda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlikning emotsionallik, faoliyatlilik, intellektuallik mezonlari va darajalari hamda uni rivojlantirishning ishonitirish, namunaviylik, maqsadlilik, rag'batlantirish metodlarining ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish.

Bu vazifalarni hal etish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so'rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellashtirish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik statistik qayta ishlash.

Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg'ona davlat universitetida o'tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi 1, 2 va 3-bosqich 123 nafar talabalar tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga "Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari" fanini bo'yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Tadqiqot ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarining "Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari" fani asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obyektiv baholash maqsadida jadval ko'rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obyektiv baholash uchun ta'kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko'rsatkichlarini matematik-statistik metod bo'yicha tahlil etish to'g'ri deb topildi. Styudent-Fisher kriteriyasi g'oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarining davrida qayd etilgan boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko'rsatkichlari qabul qilindi.

Respondent-talabalarining «Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari» fani bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlari darajasi (asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Talabalar soni	Ko'rsatkichlar darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	380	87	145	148
Nazorat	380	92	143	145

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Jismoniy-taktik tayyorgarlik asoslari" fani bo'yicha o'quv qo'llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim talaba (kursant)larda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlik bo'yicha harbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko'rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo'llanilgan mashqlar to'plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta'sir tajriba guruhida ko'rsatkichlarning samarali o'sishini ta'minladi. Bu fakt chaqiriqqacha harbiy ta'lim talaba (kursant)larda akmeologik yondashuv asosida jismoniy-taktik tayyorgarlik bo'yicha harbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotezani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2018. -B. 6-7.
2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020-yil 23-sentabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 27-son, 607-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi» to'g'risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qarori. 2002-yil 12-dekabr.
5. Шишов А. В., 100 великих военачальников. — М.: Вече, 2013. —С. 432.
6. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy merosning o'rni / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2015 yil, 28 aprel.
7. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2016 yil 20 avgust. –B. 232.
8. Atamurodov S., Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash (ijtimoiy falsafiy aspekt). Fals. fan. dok. diss. Avtoreferati -Toshkent, 1992.
9. Axrorov S.Y., Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy xususiyatlari: Dis. sots.fan.nom. Toshkent, 2009.
10. Achilidzev A., Milliy istiqlol g'oyasi millatlararo munosabatlarni tkomillashtirish omili. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T, 2005.
11. Волков Е.П., Уклонения от исполнения служебных обязанностей как форма девиантного поведения офицеров: Автореф. дис... канд. социол. наук. – М.: ВУ, 1998.
12. Kurbanov R.Y., Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni. Avtoref: dis ... fals.fan.nom. –Toshkent: 2008.
13. Муминов А.Г., Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика). Автореф.дисс...докт.полит.наук. –Т.: 1999.
14. Paxrutdinov Sh., Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2001.
15. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2011. –B. 28.
16. Redjaboyev A.D., Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: ped.fan.nom. dis. avtoref. – Toshkent, 2004.
17. Samadov A.R., Axloqiy idealning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent: 2011. – 10 b.
18. Хужамуратов И.Р., Проблемы формирования национального (эстетического) самосознания узбекского народа и влияния на него ислама. автореф. дис. докт. филос. наук.-Т.: 1994.
19. Qalqanov E.T., Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan.nom dis. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2011.
20. Usmonov K., O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiya. -Toshkent, 2017. –B. 161.
21. Gibb H. A., Studies on the civilization of Islam. Beacon Univ. Press. Boston. 1962. p. 134; Jean- Paul Roux. Ibid. p. 212.
22. Lambton A.K.C., Stat and government in medieval Islam. Oxford. 1981. p.p